

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, III-QISM**



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI .....	10
<b>I. R. Berdikulova</b>	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI .....	14
<b>Onorboev Sh.M.</b>	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
<b>Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna</b>	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
<b>Rahimova Volida Karim qizi</b>	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
<b>Nigmatjonov Sardor Abdumannovich</b>	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
<b>Дониёрова Зухрабону Алишер кизи</b>	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
<b>Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna</b>	
MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
<b>Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira</b>	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
<b>Davletov Ikrom Raximberganovich</b>	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....	67
<b>Салихова Алина Муратовна</b>	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI .....	73
<b>Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon</b>	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
<b>Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon</b>	
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI .....	83
<b>Sodiqova Nigora</b>	
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....	89
<b>Muminov Bekzod Polvonovich</b>	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА .....	95
<b>Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна</b>	
MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	103
<b>G'aniyev Elyor Sobirjonovich</b>	
DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY .....	110
<b>Damirjon Nurmatovich Soliyev</b>	



О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	116
<b>Джумаев Аскар Хайдарович</b>	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	121
<b>Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	127
<b>Muminov Obidjon Odilovich</b>	
MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'LLARI.....	135
<b>Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich</b>	
КЛАССИФИКАЦИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ С УЧЕТОМ ОПТИМИЗАЦИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССОВ.....	141
<b>Джуманов А.А.</b>	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI FAKTOR TAHLIL VA KO'P OMILLI REGRESSIYA ASOSIDA BAHOLASH.....	152
<b>V.I. Isroilov, V.B. Ibragimov</b>	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ.....	158
<b>Мамутова Айгуль Калмурзаевна</b>	
QUYOSH NOVUZLARIDA SODIR BO'LUVCHI ISSIQLIK JARAYONLARINING BIR O'LCHAMLI MATEMATIK MODEL.....	165
<b>M.M. Maxmudova, J.J. Kamolov</b>	
ФАКТОРЫ, СДЕРЖИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	172
<b>Алиев Али Комил угли, Каримова А.</b>	
ISTE'MOL KREDITLARINING ANAMIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	176
<b>S. Qayumov, M. Qurbonov, A. S. Abduraxmanov</b>	
AVTOTRANSPORT XIZMATLARI SAMARADORLIK DARAJASINI OMILLI TAHLILI.....	179
<b>Raximov Azamat Hamroqulovich</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA FIRMALARNING TASHQI BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI: XORIY TAJRIBASI.....	183
<b>Ozodova Farida Zarif qizi</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ЗОЛОВОАЛЮТНЫМИ РЕЗЕРВАМИ И ВНЕШНИМ ДОЛГОМ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧАСТНИКОВ ФИНАНСОВОГО РЫНКА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	187
<b>Зайналов Жахонгир Расулович, Алиева Сусанна Сейрановна</b>	
GENERATIV AI ASOSIDAGI ALGORITMIK NARX BELGILASH MEKANIZMLARI: RAQOBAT IQTISODIYOTIDA MONOPOLLASHUV XAVFI, VANO BO'YICHA SOZLASHUV MUAMMOLARI VA ANTIMONOPOL TARTIBGA SOLISH.....	192
<b>Kendjayeva Dildora Xudayberganovna, Abdumannopova Shirin Olamgir qizi</b>	
РАЗВИТИЕ ЗЕЛЁНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	200
<b>Тураева А. И.</b>	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN KNOWLEDGE DELIVERY MODELS.....	204
<b>Daminova Barno Esanovna, Pardayeva Sevinch Sherzod qizi, Inoqov Jasur Komil o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И СТАРТАПОВ.....	208
<b>Ибрагимов Гайратжон Артикович</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA IJTIMOY-IQTISODIY ADOLAT QOIDALARI.....	216
<b>Alimov Nasimjon Hoshimovich</b>	



ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	221
<b>Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна</b>	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISH USULLARI.....	228
<b>Daminova Barno Esanovna, Abduraimova Aziza Erkin qizi, G'ofurova Anora Zafar qizi</b>	
XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI (IFRS)GA O'TISH JARAYONIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINING MUAMMOLARI.....	233
<b>Ismailov Naufal Nadirovich</b>	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN'YI INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	241
<b>Eshqobulova Charos O'roq qizi</b>	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING.....	245
<b>Begzod Nishanov</b>	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SUG'URTA (TAKAFUL) TIZIMINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI: NAZARIY-QIYOSIY TAHLIL.....	251
<b>Abdullayev Azamat Akbar o'g'li</b>	
RAQAMLI MARKETING VA MILLIY BRENDLASH ORQALI TURIZM EKSPORTINI OSHIRISH: YAQIN SHARQ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON UCHUN YO'L XARITASI.....	259
<b>Bekmurodova F.A., Tolibova Aziza</b>	
MEVA-SABZAVOTCHILIK QUYI MAJMUASIDA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	263
<b>Murodov Sherzodbek Murod o'g'li</b>	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA.....	268
<b>Farida Nishanova</b>	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI.....	274
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ДИНАМИКИ ТУРИСТИЧЕСКИХ ПОТОКОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (2010–2024 ГОДЫ).....	278
<b>Бекимбетова Мария Махсетуллаевна</b>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I ZANJIRIGA INTEGRATSIYALASHNING FISKAL VA IQTISODIY SAMARADORLIGI: IXTIYORIY O'TISH MEKANIZMINING MIQDORIY VAHOLANISHI.....	282
<b>Urazmatov Jonibek Musurmanovich</b>	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	287
<b>Xasanova Yulduz Kayumovna</b>	
ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ДОХОДОВ РАБОТНИКОВ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....	291
<b>Рустамова Феруза Камоловна, Исхакова Сарвар Аюбовна</b>	
ISSIQXONA TIPLI QUYOSH QURITGICHINING ENERGETIK, EKOLOGIK VA IQTISODIY TAHLILI.....	296
<b>B.A. Hikmatov</b>	
ASSESSMENT CRITERIA FOR THE EFFECTIVENESS OF DISTANCE EDUCATION IN THE EDUCATIONAL SYSTEMS OF DEVELOPED COUNTRIES.....	301
<b>Umurzakova Gulyor Eshnazar qizi</b>	
KO'P FUNKSIYALI PV-TROMBE DEVORIDA KONSTRUKTIV YECHIMLAR, HAVO FILTRATSIYASI VA STERILIZATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	307
<b>Rahimova Volda Karim qizi</b>	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI, MAVJUD MUAMMOLARI VA ULARNI BARATARAF ETISH YO'LLARI.....	312
<b>Jiyanov Laziz Najimovich</b>	



KNOWLEDGE ASSESSMENT AND RESULTS VISUALIZATION BASED ON TEXT MINING IN E-LEARNING PLATFORMS .....	317
<b>Laziz Sayimovich Safarov</b>	
THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMMUNICATION CULTURE OF FUTURE TEACHERS.....	321
<b>Dilnoza Jorayevna Kuvatova</b>	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY KOMPETENSIYALARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI .....	325
<b>Sharipov Shahriyor Shamsiddin o'g'li</b>	
АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОЙ СФЕРЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	329
<b>Бабаева Г. Я.</b>	
О'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YOSHLARNING O'RNI.....	338
<b>Hamidova Shahzoda Odiljanovna</b>	



# O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YOSHLARNING O'RNINI

**Hamidova Shahzoda Odiljanovna**

Andijon davlat texnika instituti

Buxgalteriya hisobi kafedrasini o'qituvchisi

E-mail: shhzdhamidova@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston soliq tizimining samaradorligini oshirishda yosh mutaxassislarining qanday rol o'ynashi tahlil qilinadi. Muallif soliq organlariga yosh kadrlarni jalb qilish, ularning kasbiy tayyorgarligi va raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish darajasi masalalariga to'xtaladi. Shuningdek, yoshlarning soliq madaniyatini shakllantirish va soliq to'lovchilar bilan ishlashdagi o'ziga xos usullari haqida mulohazalar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** soliq tizimi, yoshlar, soliq inspektorlari, raqamlashtirish, kasbiy tayyorgarlik, soliq madaniyati.

**Abstract.** This article analyzes the role of young professionals in improving the efficiency of the tax system of Uzbekistan. The author touches upon the issues of attracting young personnel to tax authorities, their professional training, and the level of mastery of digital technologies. Also, comments are made on the formation of a tax culture among young people and their unique methods of working with taxpayers.

**Keywords:** tax system, youth, tax inspectors, digitalization, professional training, tax culture.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль молодых специалистов в повышении эффективности налоговой системы Узбекистана. Автор рассматривает вопросы привлечения молодых кадров в налоговые органы, их профессиональной подготовки и уровня освоения цифровых технологий. Также приводятся рассуждения о формировании налоговой культуры у молодежи и об особенностях их работы с налогоплательщиками.

**Ключевые слова:** налоговая система, молодежь, налоговые инспекторы, цифровизация, профессиональная подготовка, налоговая культура.

## KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda soliq tizimi sezilarli darajada o'zgardi. Eski usullar — qog'ozda hisobot topshirish, qo'lda ma'lumotlarni qayta ishlash, fuqarolarning o'zi kelib murojaat qilishiga asoslangan tizim o'rnini bosqichma-bosqich raqamli, avtomatlashtirilgan va masofaviy xizmatlar egallamoqda. Bu o'zgarishlar soliq xodimlariga qo'yiladigan talablarni ham tubdan o'zgartirdi. Endi yaxshi hisobchi yoki huquqshunos bo'lishning o'zi yetarli emas. Soliq inspektori dasturiy mahsulotlarni bilishi, ma'lumotlar bazasida tahlil olib borishi va ba'zan raqamli marketing elementlarini tushunishi kerak. Aynan shu nuqtada yoshlarning o'rnini muhimlashadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bu haqda alohida ta'kidlagan: "Kirib kelayotgan 2026-yil davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, iqtisodiyot tarmoqlari, ta'lim, ilm-fan, tibbiyot, madaniyat, sport, ekologiya tizimini — barcha-barcha sohalarni rivojlantirishda tub burilish yili bo'ladi" [1]. Soliq tizimi ham ushbu islohotlar jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Burilish esa, avvalo, odamlar bilan boshlanadi. Shu sababli, soliq organlarida ishlayotgan va ishlashga kelayotgan yoshlarning tayyorgarligi va munosabati hozirgi kunda avvalgidan ko'ra ko'proq ahamiyat kasb etmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq tizimi samaradorligi va inson omili o'rtasidagi bog'liqlik haqida ko'plab tadqiqotlar mavjud. Biroq O'zbekiston misolida, ayniqsa, so'nggi besh yildagi islohotlar fonida, yoshlarning bu tizimdagi roli hali yetarlicha o'rganilmagan. Mavjud ma'lumotlar asosan davlat hisobotlari va me'yoriy hujjatlarda tarqoq holda berilgan. Masalan, 2024–2025-yillarda qabul qilingan bir qator qarorlarda soliq inspektorlari uchun yangi malaka talablari belgilangan. Xususan, "mahalla yetiligi" tarkibidagi soliq inspektorlari uchun aniq mezonlar joriy etilgan. Ushbu mezonlar orasida yosh chegarasi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmagan bo'lsa-da, amalda 30–35 yoshgacha bo'lgan mutaxassislariga ustunlik berilayotgani kuzatiladi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Soliq organlarining ochiq hisobotlari, Normativ-huquqiy hujjatlar milliy bazasi (Lex.uz) materiallari va oliy ta'lim muassasalarining "Soliq va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha o'quv rejaları tahlil qilingan. Bundan tashqari, Andijon viloyati soliq organlarida 2024–2025-yillarda ishga qabul qilingan yosh mutaxassislarining faoliyati yuzasidan kuzatishlar va norasmiy suhbatlar materiallaridan foydalanilgan. Qiyosiy tahlil usuli bilan O'zbekiston va qo'shni davlatlar (Qozog'iston, Qirg'iziston) soliq tizimlarida yosh kadrlar bilan ishlash tajribasi solishtirilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yoshlarning soliq tizimi samaradorligiga ta'siri bir necha aniq yo'nalishda namoyon bo'lmoqda. Birinchi yo'nalish — bu mutaxassislarining texnologik tayyorgarligi. Soliq qo'mitasining 2025-yilgi hisobotiga ko'ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bo'yicha malaka oshirish kurslarini tamomlagan xodimlarning 68 foizi 35 yoshgacha bo'lganlar. Bu yosh guruhi dasturiy mahsulotlarni o'zlashtirishda, masalan, "Soliq" elektron platformasi yoki "My3.soliq" mobil ilovasining yangi versiyalariga moslashishda o'rtacha 2–3 barobar tezroq natija ko'rsatgan [7].

Ikkinchi yo'nalish — soliq to'lovchilar bilan ishlash uslubi. Yosh inspektorlar, ayniqsa, 30 yoshgacha bo'lganlar, fuqarolarga tushunarli tilda javob berishga, murakkab soliq normalarini sodda qilib tushuntirishga ko'proq moyil. Bu bevosita soliq qarzlari va jarimalarning kamayishiga olib keladi. Andijon viloyatida 2024-yilda ishga qabul qilingan 12 nafar yosh inspektor faoliyat yuritgan hududlarda soliq masalalari bo'yicha murojaatlar soni 35 foizga oshgan, biroq takroriy murojaatlar, ya'ni bir xil masala bo'yicha qayta kelish 22 foizga kamaygan. Bu yoshlarning tushuntirish ishlarini sifatli olib borayotganini ko'rsatadi.

Uchinchi yo'nalish — bu yoshlarning soliq madaniyatini shakllantirishdagi ishtiroki. Prezident Murojaatnomasida "tadbirkor, dehqon va fermerlarning tashabbuskorligi va mardona mehnati" qayd etilgan. Biroq tashabbuskorlikning o'zi yetarli emas, uni qonuniy yo'lga solish va soliqlarni ixtiyoriy to'lashga undash kerak. Yosh inspektorlar ijtimoiy tarmoqlar, mahalla yig'inlari va yoshlar bilan ishlash markazlari orqali bu ishni avvalgidan ko'ra samaraliroq olib bormoqda. Masalan, 2025-yilda Farg'ona vodiysining uchta viloyatida yoshlar tomonidan 40 dan ortiq "soliq savodxonligi" darslari tashkil etilgan. Bu darslarda qatnashgan fuqarolarning keyingi oylarda soliq qarzlarni ixtiyoriy to'lash darajasi o'rtacha 18 foizga oshgan.

To'rtinchi yo'nalish — soliq organlarining ichki samaradorligi. Yosh mutaxassislar qog'ozbozlik va byurokratik jarayonlarni qisqartirishga intiladi. 2025-yilda Soliq qo'mitasida 30 yoshgacha bo'lgan xodimlar tomonidan 27 ta ichki tartib va yo'riqnomani soddalashtirish bo'yicha taklif kiritilgan. Ularning 19 tasi qabul qilingan va joriy etilgan. Bu esa bir xil ma'lumotni qayta-qayta kiritish yoki turli bo'limlarga bir xil hujjatni topshirish zaruratini bartaraf etgan. Oddiy qilib aytganda, yoshlar vaqtni tejaydi. Vaqt tejalishi soliq ma'murchiligi samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Endi eng muhim savolga kelamiz: yoshlarning bu faolligi va ijobiy ta'siri qayerdan paydo bo'lmoqda? Keling, buni batafsil ko'rib chiqaylik.

Avvalo, ta'lim tizimining o'zgarganiga e'tibor qarataylik. So'nggi 5–7 yil ichida O'zbekistonda "Soliq va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturlari jiddiy yangilandi. Ilgari talabalar asosan Soliq kodeksining moddalarini yod olishgan [2]. Bu yondashuv amaliyot bilan yetarlicha bog'lanmagan edi. Bir talaba menga shunday degan edi: "Biz 500 moddani yod oldik, lekin birinchi ish kunimda kompyuterni yoqishni bilmadim". Hozir esa vaziyat o'zgardi. Talabalar real ma'lumotlar bilan ishlashni, soliq bazasini hisoblashni, risklarni aniqlashni o'rganmoqda. Andijon davlat texnika institutida bu yo'nalishda tahsil olgan bitiruvchilarning 2024–2025-yillardagi ishga joylashish ko'rsatkichi o'rtacha 82 foizni tashkil etgan. Bu degani, har 10 bitiruvchidan 8 nafari o'qishni tugatgandan so'ng bir yil ichida ish topadi. Ularning aksariyati aynan soliq organlarida ishlaydi. Institutda o'qigan paytlarida ular soliq inspektorlari bilan uchrashuvlar o'tkazishgan, bir necha bor soliq boshqarmasiga ekskursiya qilib borishgan. Ya'ni ular nazariy bilimni amaliyot bilan bog'lash imkoniga ega bo'lishgan.

Yana bir muhim jihat — yoshlarning raqamli muhitda tabiiy ravishda o'sganligi. 25–30 yoshdagi inspektor internet, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarda 35–40 yoshdagilarga nisbatan ko'proq vaqt o'tkazgan. Bu ularning aybi emas, bu ularning hayot tarzi. Ular raqamli qurilmalardan kundalik faoliyatda faol foydalanadi. Shu tufayli ular soliq to'lovchi bilan telefon suhbatida emas, balki Telegram, WhatsApp yoki boshqa messenjerlar orqali muloqot qilishni afzal ko'radi. Bu zamonaviy fuqaro uchun qulay. O'ylab ko'ring: ish vaqtida kimdir sizga qo'ng'iroq qilib, 5 daqiqa gapirishi mumkin. Yoki u sizga Telegram'da xabar yozadi, siz esa bo'sh vaqtingizda 30 soniyada javob berasiz. Qaysi biri qulay? Albatta, ikkinchisi. 2025-yilda Soliq qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan so'rovda 18–35 yoshdagi fuqarolarning 71 foizi soliq masalalari bo'yicha maslahatni onlayn chat yordamida olishni xohlashini aytgan.

Yosh inspektorlar soliq to'lovchilar bilan zamonaviy muloqot shakllarini yo'lga qo'yishda muhim

salohiyatga ega. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, yosh mutaxassislar fuqarolar bilan telefon orqali uzoq suhbatlashishdan ko'ra, yozma va tezkor aloqa vositalari — Telegram, WhatsApp yoki boshqa onlayn platformalar orqali muloqot qilishni afzal ko'radi. Bu esa bugungi soliq to'lovchilar uchun ham qulay, chunki ular kerakli ma'lumotni o'zlariga mos vaqtda, qisqa hamda tushunarli shaklda olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, yoshlarning avvalgi ish uslublariga to'liq moslashib ulgurmagani ham ijobiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Ular mavjud tartiblarni shunchaki davom ettirishdan ko'ra, "nega bu jarayon aynan shunday bajarilishi kerak?" degan savolni ko'proq beradi. Bunday yondashuv esa ichki jarayonlarni qayta ko'rib chiqish, ortiqcha bosqichlarni qisqartirish va soliq ma'murchiligini soddalashtirishga xizmat qiladi. Tajribali xodimlar ba'zan yillar davomida shakllangan ish tartiblariga tayanadi. Shu sababli ayrim jarayonlarni qayta ko'rib chiqish zarurati darhol sezilmasligi mumkin. Yoshlar esa "buni nima uchun shunday qilish kerak?" deb so'raydi. Bu savolning o'zi jarayonlarni yaxshilashga olib keladi. Misol uchun, 2025-yilda yosh inspektorlardan biri soliq hisobotlarini qabul qilishda elektron raqamli imzoni ikki marta tekshirish tartibini bekor qilishni taklif qilgan. Taklif quyidagi amaliy asosga ega edi: "Agar bir marta tekshirilgan bo'lsa, ikkinchi marta tekshirish vaqti va resursni behuda sarflashdir". Kattaroq inspektorlar bu tartibni yillar davomida bajarib kelishgan va hech qachon "nega?" deb so'rashmagan. Yosh esa so'radi. Taklif qabul qilindi. Natijada har bir hisobotni qabul qilish vaqti o'rtacha 3–4 daqiqaga qisqardi.

Bu kichik o'zgarishdek ko'rinsa-da, yil davomida qabul qilinadigan minglab hisobotlar miqyosida sezilarli vaqt tejalishiga olib keladi.

Yana bir muhim jihat — yosh mutaxassislarning yangilikka ochiqligi va tashabbuskorligidir. Tajribali xodimlar ba'zan xato qilish ehtimoli tufayli yangi usullarni sinab ko'rishda ehtiyotkor bo'lishi mumkin. Yosh inspektorlar esa xatoni ko'proq tajriba va o'rganish jarayonining bir qismi sifatida qabul qiladi.

Albatta, ular ham xato qilishni xohlamaydi, lekin xato qilib qo'ysa, "endi bilaman, boshqa qilmayman", deydi. Bu psixologik jihatdan ularni yangi narsalarni sinab ko'rishga undaydi.

Masalan, yosh inspektorlardan biri o'z hududida soliq to'lovchilar uchun onlayn vebinar tashkil etish tashabbusini ilgari surgan. Dastlab ayrim tajribali xodimlar bu tashabbusga shubha bilan qaragan bo'lsa-da, vebinarida 50 nafardan ortiq soliq to'lovchi ishtirok etgan. Keyinchalik ushbu tajriba boshqa hududlarda ham qo'llanila boshlagan. Bu holat yoshlarning tashabbuskorligi va yangi muloqot shakllarini sinab ko'rishga tayyorligi soliq tizimi samaradorligini oshirishda amaliy natija berishini ko'rsatadi.

Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalana olishi ham alohida e'tiborga loyiq. Katta yoshdagi inspektorlar ijtimoiy tarmoqlardan asosan shaxsiy maqsadlarda foydalanadi: do'stlari bilan rasm almashish, yangiliklarni o'qish. Yosh inspektorlar esa ijtimoiy tarmoqlarni ish quroli sifatida ishlata oladi. Ular Telegram'da kanal ochadi, Instagram'da qisqa videoroliklar tayyorlaydi. 2025-yilda Farg'ona viloyatida ishlaydigan bir yosh inspektor o'z kanalida soliq yangiliklarini 3 daqiqalik videolarda tushuntirgan. Uning kanali bir yilda 10 mingdan ortiq obunachiga ega bo'ldi. Bu kanal orqali fuqarolar soliq masalalari bo'yicha o'z vaqtida ma'lumot olish imkoniga ega bo'ldi. Bir kuni bir fuqaro ushbu inspektorga shaxsan kelib: "Men sizning videolaringizni ko'rib, soliq qarzim borligini bildim. Keldim, to'ladim", deb aytgan. Yosh inspektor nafaqat ma'lumot tarqatgan, balki budjetga mablag' kelishiga sababchi bo'lgan.

Ko'pchilik yosh inspektorlarning bir nechta vazifani bir vaqtda bajarish qobiliyatini ham qayd etadi. Katta yoshdagi xodimlar ko'pincha bitta ishni tugatib, keyin boshqasiga o'tadi. Yosh inspektorlar esa bir vaqtda bir nechta ishni qila oladi. Masalan, bir yosh inspektor kompyuterda hisobotlarni tekshirib o'tirgan holda telefon orqali soliq to'lovchiga maslahat berishi va shu bilan birga Telegram'dagi savollarga javob yozishi mumkin. Bu "multitasking" qobiliyati ularning kundalik hayotida shakllangan. Ular maktabda, institutda, uyda doim bir nechta ishni bir vaqtda bajarishga majbur bo'lgan. Soliq organlarida bu qobiliyat ularga katta ustunlik beradi.

Yana bir jihat — yoshlarning chet tilini bilishi. So'nggi yillarda O'zbekistonda chet tiliga e'tibor kuchaygan. Maktabda, institutda ingliz tili majburiy fan. Ko'plab yosh inspektorlar ingliz tilini biladi yoki hech bo'lmaganda texnik matnlarni tarjima qilishga qodir. Bu xalqaro loyihalarda, chet ellik ekspertlar bilan ishlashda muhim. Masalan, 2025-yilda Jahon banki tomonidan o'tkazilgan seminarida yosh inspektorlar tarjimonlarsiz bevosita chet ellik mutaxassislar bilan muloqot qilgan. Bu seminar samaradorligini oshirgan.

Yoshlarning maoshga bo'lgan munosabati ham boshqacha. Kattalar ko'pincha "maoshim oshsa, yaxshi ishlayman", deydi. Yoshlar esa "yaxshi ishlasam, maoshim oshadi", deb o'ylaydi. Bu farq muhim. Yosh inspektorlar o'z ishining natijasini ko'rishni xohlaydi. Agar ularning taklifi qabul qilinsa, ular o'zlarini kerakli his qiladi. Pul ikkinchi o'rinda turadi. Soliq qo'mitasining 2025-yilda o'tkazgan so'rovida yosh xodimlarning 64 foizi "ishdagi eng muhim omil bu rivojlanish imkoniyati" deb javob bergan. Bu yosh xodimlar uchun kasbiy rivojlanish muhim motivatsion omil ekanini ko'rsatadi..

Yoshlarning sayohat qilish va yangi joylarni ko'rish istagini ham unutmaslik kerak. Ko'pchilik yosh inspektorlar boshqa shaharlarga xizmat safariga borishni istayd.. Soliq tizimida hududlararo almashinuv tajribasi mavjud. Yosh inspektorlar boshqa viloyatga borib, u yerdagi tajribani o'rganadi va o'z hududiga olib keladi. Bu bilim almashish tizimiga yangicha g'oyalarni olib kiradi.



Yana bir kichik, ammo muhim jihat — yoshlarning kech qolishdan qoʻrqmasligi. Bu biroz kulgili tuyulishi mumkin, lekin bu ham haqiqat. Katta inspektorlar ish vaqtida hamma ishni tugatishga intiladi. Agar tugatmasa, ertaga qoladi. Yosh inspektorlar esa ish vaqtdan keyin ham qolishga tayyor. Ular kompyuter oldida tungacha oʻtirishga odatlangan. Bu ularning universitet davrida shakllangan odati. Soliq organlarida esa bu odat ularga murakkab hisobotlarni oʻz vaqtida topshirishga yordam beradi.

Bir narsani aytib oʻtish kerak: yoshlarning bu ijobiy tomonlari avtomatik ravishda ishlamaydi. Tizim ularga imkoniyat berishi kerak. Agar yosh inspektor taklif qilsa va bu taklif bir necha oy davomida hech qanday javob olmasa, u keyingi safar taklif qilmaydi. Agar uning mehnati eʼtirof etilmasa, u boshqa joyga ketadi. Soliq tizimi yoshlarni nafaqat ishga qabul qilishi, balki ularni ushlab qolishi ham kerak. Bu soliq organlari oldidagi muhim institutsional vazifalardan biridir. Chunki yosh malakali mutaxassis xususiy sektorga oʻtishi mumkin, u yerda maosh yuqori va tartib kam. Soliq organlari esa maosh jihatidan xususiy sektor bilan raqobatlasha olmaydi. Shuning uchun ular boshqa jihatlarida, masalan, rivojlanish imkoniyati, masʼuliyatli vazifalar, ijtimoiy paket bilan yoshlarni jalb qilishi kerak.

Prezident Murojaatnomasida aytilgan “yoshlarning gʻayrat-shijoati” aynan shu — ularning harakat qilishga, oʻzgarishga va yangi narsalarni sinab koʻrishga tayyorligi. Soliq tizimi esa bu energiyani toʻgʻri yoʻnaltira olsa, natija kelishi aniq.



1-rasm. Yosh kadrlar oʻsish surʼati - Oʻzbekiston tajribasi<sup>1</sup>.

Yuqoridagi rasimga qiyosiy jihatdan qaraganda, qoʻshni Qozogʻistonda soliq organlarida 30 yoshgacha boʻlgan xodimlar ulushi Oʻzbekistonga nisbatan biroz past — taxminan 18 foiz. Oʻzbekistonda bu koʻrsatkich 2025-yilda 24 foizga yetgan. Qirgʻizistonda esa bu koʻrsatkich 15 foiz atrofida. Yaʼni Oʻzbekiston bu borada mintaqada yetakchi emas, lekin oʻrtachadan yuqori. Biroq yetakchilik muhim emas, muhimi oʻsish surʼati. Oʻzbekistonda 2022-yilda bu koʻrsatkich 19 foiz boʻlgan boʻlsa, 2025-yilda 24 foizga yetgan. Bu uch yil ichida 5 foizlik oʻsish — sezilarli natija.

Toʻrtinchi sabab — yoshlarning ishga munosabati. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, yosh avlod uchun maoshdan tashqari, oʻz fikrining qadrlanishi, masʼuliyatli vazifalar berilishi va oʻqish imkoniyati muhim. Soliq qoʻmitasining 2025-yilda yosh xodimlar orasida oʻtkazilgan soʻrovida (n = 340), respondentlarning 64 foizi “ishdagi eng muhim omil bu rivojlanish imkoniyati” deb javob bergan. Maosh ikkinchi oʻrinda kelgan — 51 foiz. Yaʼni yosh soliq inspektori koʻproq pul olishni emas, balki koʻproq oʻrganish va oʻsishni xohlaydi. Agar tizim ularga buni bersa, ular tizimga sodiq qoladi va uning samaradorligini oshiradi.

Prezident Murojaatnomasida yana bir jihat bor: “oʻzaro manfaatli hamkorlikka asoslangan doʻstona tashqi siyosat”. Tashqi siyosat va soliq tizimi bir-biriga toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliq koʻrinmaydi. Biroq bilvosita bogʻliqlik bor. Xalqaro kompaniyalar sarmoya kiritishdan oldin mamlakatning soliq tizimini oʻrganadi. Agar tizimda zamonaviy, raqamli va ochiq fikrli yosh mutaxassislar ishlayotgani maʼlum boʻlsa, bu investor ishonchini oshiradi. Yosh

1 Manba: muallif ishlanmasi.



inspektorlar xalqaro loyihalarda, masalan, Yevropa Ittifoqi yoki Jahon banki bilan hamkorlikda ishlashga ko'proq tayyor. Chunki ular chet tilini biladi, xalqaro hisobot standartlarini tushunadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston soliq tizimi samaradorligini oshirishda yoshlarning o'rni juda katta, lekin bu o'rin avtomatik ravishda keladigan narsa emas. Yoshlar soliq organlariga bir qancha foydali tomonlarini olib keladi: texnologiyalarni tez o'zlashtirish, soliq to'lovchilar bilan zamonaviy va tushunarli tilda muloqot qilish, eski va samarasiz tartiblarga "nega?" deb so'rash va yangi yechim taklif qilish. Biroq buning teskarisi ham bor: yoshlarni ushlab qolish, ularga yetarli maosh va martaba imkoniyatini yaratmaslik tizimda kadrlar barqarorligi bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Chunki yosh malakali mutaxassis xususiy sektor yoki boshqa mehnat bozorlariga o'tib ketish ehtimoli ortadi.

Prezident Murojaatnomasining yakuniy qismida aytilganidek: "Bir bo'lsak, yagona xalq, yagona millat bo'lib harakat qilsak, ko'zlagan ulkan maqsadlarimizga, albatta, yetamiz" [1]. Soliq tizimida yoshlar va katta avlod bir-biriga qarshi emas, balki birgalikda ishlashi kerak. Kattalar tajriba beradi, yoshlar esa yangilik va energiya. Agar bu sintez amalga ohsa, 2026-yil nafaqat "tub burilish yili", balki O'zbekiston soliq tizimi butunlay yangi sifat darajasiga ko'tarilgan yil sifatida tarixda qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr. <https://gov.uz/oz/sirdaryo/news/view/115697>
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2019-yil 30-dekabr. <https://lex.uz/ru/docs/-4674902>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi 320-son "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-4290724>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957>
5. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3026246>
6. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrdagi O'RQ-395-son "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2833860>
7. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi faoliyatiga oid ochiq axborotlar va elektron soliq xizmatlari materiallari asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan tahliliy ma'lumotlar. — Toshkent, 2025.
8. Andijon viloyati soliq organlari faoliyatiga oid amaliy kuzatuvlar va yosh mutaxassislar bilan ishlash tajribasi asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan tahliliy ma'lumotlar. — Andijon, 2024–2025.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## **2026. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)